

## EKOLOGIYA FANINI O'QITISHDA YANGI METOD VA TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

**Shaharov Qurbanboy Shavkat o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tyutori.

**Safarov Abdulaziz G'ulom o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti ekologiya va atrof- muhit muhofazasi ta'lif yo'nalishi 1- kurs talabasi.

**Qurbanmurodov Sardor Erkin o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti ekologiya va atrof- muhit muhofazasi ta'lif yo'nalishi 1- kurs talabasi.

**Muminov Jaxongir Baxtiyor o'g'li**

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti ekologiya va atrof- muhit muhofazasi ta'lif yo'nalishi 1- kurs talabasi.

**Annotatsiya** Maqolada Ijodiy imkoniyatlarga ega bolgan bola yangi o'quv materiallarini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini o'rnatishga tayyor bo'ladi.

**Kalit so'zlar.** Mashg'ulot, juda chiroylı, milliy g'urur, didaktik-semantik jihatlarni, tarixiy meroslar, urf-odatlar, badiiy asar, mutafakkir, vosita, iroda, tafakkur.

Respublikamiz xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu esa o'ziga xoslik, avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroylı, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish tuyassar bo'lganida ko'rindi.<sup>70</sup> Bu sharoit barchamizdan juda katta ko'tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashga imkon beradi. O'quvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, o'zimizda bu sifatlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga ekologiya kursi ta'llim-tarbiyasiga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtida eski uslub bilan yangi vazifalarai amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki yangi texnologiyalar o'z

<sup>70</sup>Nuritdinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, 2005 yil

<sup>2</sup>Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. - 1997 y.

tushunchalari, “tili” bilan kirib kelib, Vatan iqtisodiyoti, fan-texnika taraqqiyotining darajasini asta-sekin yuksaltirmoqda. Tabiat-yeryuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go’shadir. Insoniyat yashayotgan zaminning o‘z qonuniyati mavjud. Zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne’matning o‘zi yo‘q. Hozirgi kunga kelib ona tabia timizni muhofaza qilish, undagi barcha ne’matlardan oqilona foydalanish va isrof qilmaslik yurtimizda hattoki davlat siyosati darajasiga ko’tarilmoqda. Masalan, O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasi bunga yaqqol misol bo’ladi. Bunda ko’rsatilishicha, fuqarolar atrof tabiiy–muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishga majburdirlar. Biz esa bundan ogoh bo’lishimiz va yerdan unumli foydalanishimiz zarur. Yangi asrning barkamol kishisi o‘zida ekologik madaniyat unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat bu–atrof–muhit to‘g’risida chuqur bilimga tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo’lish, o’simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g’amxo’rlik ko’rsatishga, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko’paytirish borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko’rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o‘zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin. Iste’moldan ortiqcha suv jo’mrakdan oqishiga yo’l qo’ymaslik,suv havzalarni ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga tashlamaslik, turar joyni ozoda saqlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorlarga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko’rinishi hisoblanadi. Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof–muhit, jamiyat va ekologiya o’rtasida nomutanosiblik vujudga kelayotir. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko’ndalang qo’ymoqda.

Bizga ma'lumki chiqindilar ozon qatlamiga bevosita salbiy ta’sir ko’rsatadi. Mutaxasislarning aytishicha, ozon qatlamining yemrilishi odamlarda saraton kasalligini keltirib chiqaradi. Afsuski bugungi kunda bu kasallik avj olib bormoqda. Chiqindilarni qayta ishlash mazkur muammoni qisman bo’lsa-da hal etadi. Ko’pchilik qayta ishlangan chiqindidan tayyorlangan buyumlarni sog’liqqa zarar deb biladi.Aynan ana shunday noto’g’ri qarashlarning shakllanishi ham chiqindini qayta ishlashga to’sqinlik qilmoqda. Bu o'rinda o'qituvchilarning o'mi katta. O'qituvchilar o'quvchilarga global muammoga aylangan chiqindi masalasini dadil yoritishlari, uni qayta ishlash, metal qazib olish yoki qog'oz tayyorlashdan ko’ra ancha arzonga tushishini, muhimi atrof–muhit tozaligi’ inson salomatligi uchun yaxshi bo’lishini, tabiiy resurslarni tejashta yordam berishini, sayyoraning o'pkasi bo'lmish o'rmonlar kesilishining oldini olishini tushuntirishlari lozim

Shuni aytish joizki, ekologiya fanida yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zaruriyati tug'ilmoqda. Hozirgi zamon ta'limida didaktik-semantik jihatlarni aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) odamlar tomonidan har xil talqin qilinadi, didaktlar semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiylar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar ekologiya kursini o'quv materialni bayon qilish, o'quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariyalar munosabatlarini hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi lozim. "Ta'lif to'g'risida"<sup>3</sup>gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lif fanlari bo'yicha davlat ta'lif standartlari ishlab chiqilib bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi.<sup>71</sup> Chunki davlat ta'lif standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal daraja bo'lib, davr o'quvchilarga ta'lif standartlari darajasi talablardan oshirib bilim, iqtidor va ko'nikmalar berishni taqozo etadi.<sup>72</sup>

Bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun izlanish va tashabbus lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalambor ana shu dolzarb vazifalami hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilab beradigan bir tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijaga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Shunda ekan ekologiya fani o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas, balki, ularning o'qituvchilarni inson sifatida shakllanishiga ta'sirining mezoni sifatida qarash lozim. Bundan tashqari, ilg'or pedagogik tajribaning qulayligi va tejamliligini ham e'riborga olinishi lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtini tejash, ularni toliqtirishdan asrash ham muhimdir. Darhaqqa, hammasi uning nihoyatda qiyin, murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shulardan kelib chiqib, pedagogik texnologiyaga ta'rif berish mumkin.

<sup>3</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. - 1997 y.

<sup>4</sup> Tolipova J.O.G'ofurova A.T. "Ta'lif jarayonidagi noan'anaviy shakllari." Metodik qo'llanma. - T.: 1994 y.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi pedagogik mahoratining yuksak cho'qqisi hisoblanib, ta'lim-tarbiyaning har qanday murakkab vaziyatida ham aniq qo'llaniladigan usul, vositalarining birligi anglatadi. Shunday ekan o'qituvchilar ta'limga darsdan tashqari har bir shaklining tuzilishi, bosqichlarini an'anaviy darsdan ustunligini amalda sinab ko'rib, ta'sirchan shaklini aniqlashlari zarur. Bu esa o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, buning uchun ta'lim nazariyasini, uning hozirgi zamon muammolarini bilish, ijod qilish, tinmay izlanishlarni hozirgi zamon talablariga muvoffiq talab etiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Zokirov X. X, Yo'Idoshova SH. A.Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish. T. Yangi nashr, 2011.- 308 b.
2. Zokirov X. X, Yo'Idoshova SH. A.Tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik jihatlari Qarshi.«Nasaf », 2010.- 37 b.